

## **BOLALAR PSIXOLOGIYASIDA OILANING O'RNI**

*Komilova Dilfuzaxon Baxramovna*

*Andijon viloyati Qo'r'gontepa tumani Qorasuv shaxar 53-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalar psixologiyasi mustaqil fan sifatida, oila va uning ahamiyati, farzand tarbiyasida ota-onaning o'zaro munosabatlarining o'rni, bolalar psixologiyasida oila va ijtimoiy muhitning ta'siri yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Oila, farzand, tarbiya, biologik omillar, nasliyat, psixik taraqqiyot, ijtimoiy muhit, yosh davrlari, psixologik salomatlik.

Umumiy psixologiya fanining shu kungacha bir qancha sohalari bo'lib, ulardan biri bolalar psixologiyasidir. Bolalar psixologiyasi mustaqil fan sifatida bolaning tug'ilgan paytidan boshlab voyaga yetguncha bo'lgan davridagi psixik taraqqiyotini o'rganadi. Bolalar psixik hayotiga oid qonuniyatlarni o'rganuvchi bolalar psixologiyasi ham dialektik materializm metodologiyasiga asoslanadi va boshqa hodisalarga nisbatan o'rganilishi ancha qiyin bo'lgan nozik psixologik hodisalarning asl mohiyatiga ilmiy asosda bilib olishi mumkin bo'lgan bir narsa deb qaraydi. Dialektik materializm prinsiplariga asoslangan bolalar psixologiyasi murakkab aks ettirishdan iborat bo'lgan subyektiv hodisalarni ularning obyektiv sabablari bilan birgalikda, ya'ni tirik materiyaning eng murakkab turi bo'lgan miyadagi fiziologik hodisalar, hamda kishining butun psixikasi, ongida aks etadigan jamiyatning moddiy negizi, undagi konkret ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan birgalikda o'rganadi<sup>1</sup>. Bolalar psixologiyasi murakkab psixik taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganishda determinizm, ya'ni narsa va hodisalarning sababiy bog'liqligi prinsipiga asoslanadi. O'sib kelayotgan shaxsda ijobiy sifatlar shakllanishida oiladagi sog'lom muhit katta ahamiyat kasb etadi. Oilada sog'lom muhitning yaratilishi ko'p omillarga bog'liq bo'ladi. Masalan, oila boshliqlari bilan bolalarning o'zaro yaxshi munosabati, xonadon qariyalariga hurmat e'tibori, oiladagi bolalarning o'zaro munosabatlari, to'g'ri tarbiyalangani, ota-onaning bolalar tarbiyasiga barobar jonkuyarligi, oilada o'rnatilgan to'g'ri tarbiya va yaxshi odatlar, ota-onaning

mehnatga, ijtimoiy hayot hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'lish kabilar shular jumlasidandir. Bularning qay birida mutanosiblik buzilsa, demak o'sha oiladagi sog'lom muhitga putur yetadi. Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati, o'zlarini tuta bilishlari muhimdir. Oilada muomalaning barcha qoidalariga amal qilinishi lozim. Kattalarga hurmat, kichiklarni avaylash, bir-biriga mehribonlik, ayniqsa, ayollarni izzat qilish odatga, qoidaga aylanib borishi kerak. Bolalarga onani hurmat qilishni, unga mehribon bo'lishni o'rgatish otaning muhim vazifasi hisoblanadi. Odatda o'g'il bola otasiga, qizlar esa onasiga o'xshashga, ulardagi yaxshi xislatlarni o'ziga singdirishga harakat qiladi. Ota ham, ona ham bolani tarbiyalashga o'z hissalarini qo'shadilar. Ona g'amxo'r, mehribon, ko'ngilchan uy bekasi bo'lsa, ota kuch-qudrat, jasurlik, qattiqqo'llik va adolat ramzi. Ota ko'proq bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishi uchun qayg'ursa, ona yurish turish, muomala, his-tuyg'u, nafosat uchun tashvishlanadi. Bularning hammasi nisbiy bo'lib, ota ham, ona ham bolaning aqliy, axloqiy, jismoniy kamoloti uchun baravar javobgar, chunki, ularning birdan-bir maqsadi shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir. Ana shu jarayonning mufaqqiyatli bajarilishi, ko'p o'rinda ota-onaning obro'sini belgilaydi. Oilada er-xotin o'rtasidagi o'zaro hurmat, ishonch va vafo-sadoqat bolalarning quvnoq, xushchaqchaq o'sishlariga, normal tarbiyalanishlariga, xonadonda sog'lom muhit yaratilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiya — ko'p qirrali uzoq davom etadigan jarayondir. Bolani o'rab olgan muhitning hammasi odamlar, narsalar, hodisalar uning ongida, xulq-atvorida ma'lum iz qoldiradi, uni o'zgartiradi va o'stiradi. Ota-onalik burchi mana shu o'sishni ziyraklik bilan boshqarib borish. Ota-onaning mehri, muruvvati, g'amxo'rliqi bolalar uchun suv va havodek zarur. Oilada bola tarbiyasining o'ziga xos qoidalari mavjud bo'lib, otaonalar ulardan o'rinli foydalanishlari lozim. Xususan, ular quydagilar:

1. Oilada hissiy moslik, ruhiy xotirjamlik va iliq iqlim yaratish;
2. Ota-ona obro'sini saqlash;
3. Tarbiyada ota-ona, kattalar o'rtasida talabchanlik;

1 Д.Б.Эльконин "Детская психология"

4. Bola shaxsini mehnatda tarbiyalash;

5. Oila, bog‘cha, maktab va jamoatchilik hamkorligi;
6. Bolani sevish va izzat qilish;
7. Oilada qat‘iy reja va kun tartibi o‘rnatish;
8. Tarbiyada bolalarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish.
9. Bola taraqqiyotini aniqlab borish.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, xalqimizning qon qoniga aralashib ketgan oilaviy qadriyatlar, bolaning tarbiyasiga katta e‘tibor, kattalarga hurmat har bir oilada o‘z aksini topishi lozim. Kelajakda komil shaxs bo‘lib shakllanishda oilaning o‘rni nihoyatda katta ekanini tushunish orqali farzandlarni go‘zal xulqli etib tarbiyalash har bir ota-onaning burchi hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Д.Б.Эльконин "Детская психология"
2. В.М.Умаров "Psixologiya". Toshkent-2012
3. Sh.A.Dusmuhamedova N.T.Rasulova "Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya". Toshkent-2021
4. M.Mirqosimova Z.Kasimova F.Rasulova "Umumiy pedagogika va psixologiya" Toshkent-2022